


Yosh sharqshunoslar xalqaro konferensiyasi o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan har yili an'anaga aylangan akademik Ubaydulla Karimov nomidagi yosh sharqshunoslar konferensiyasi o'tkazildi. Bu yilgi konferensiya "O'zbekistonda islom madaniyati, tarixi va san'atini o'rganishning yangi istiqbollari" deb nomlandi.

Mazkur konferensiya 2004-yildan beri o'tkaziladi. 2019-yildan esa u respublika miqyosidagi tadbirdan xalqaro darajaga ko'tarildi.

Tadbirning rasmiy qismidan avval ishtirokchilar uchun Institut qo'lyozmalar fondidagi manbalarning nodir namunalari qo'yilgan ko'rgazma uyushtirildi.





Konferensiya ishi Islom tarixi, madaniyati va san'atini tadqiq etish markazi (IRSISA) bosh direktori professor, doktor Mahmud Erol Qilich va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori B.Abdualimovning kirish so'zlari bilan ochildi. Shundan so'ng konferensiya ishtirokchilariga O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi direktori Sh.Minovarov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi prorektori professor Z.Islomov, O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi hamda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom al-Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari direktorlari o'z tabrik so'zlari bilan murojaat qildilar.





Konferensiyaning yalpi majlisida akademik Ubaydulla Karimov tadqiqotlarining O'zbekiston sharqshunosligidagi o'rni, Movarounnahrning islom sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyati, XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo ijtimoiy hayotida musulmon ulamolarining roli hamda Janubiy Issiqko'ning islom davri qayroqlari mavzulariga doir O'zbekiston, Turkiya va Qirg'iziston olimlarining ma'ruzalari tinglandi.

Konferensiya ishida Fanlar akademiyasining ijtimoiy-gumanitar institutlari va muzeylari, sohaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari vakillari, shuningdek, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va AQShning universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari olimlari onlayn tarzda ishtirok etdilar.